
TEST VARIANTI RAQAMI: **1958399**

TARIX

Ushbu test varianti 30 ta test topshirig‘idan iborat. Uni bajarishga 1 soat vaqt belgilash tavsiya etiladi. Natijani bilish uchun javoblaringizni javoblar varaqasiga belgilab, rasmini **@dtmxizmatbot** orqali jo‘nating. Sizga omad tilaymiz!

TEST VARIANTI RAQAMINI JAVOBLAR VARAQASIGA TO‘G‘RI KO‘CHIRING!



1. Quyidagilardan qaysilari GSDP faoliyati bilan bog‘liq? (XX asr boshlarida)
1) ishchilar manfaatini parlament yo‘li bilan hal qilish; 2) ishchilar, dehqonlar va savdogarlar o‘rtasida ittifoqni vujudga keltirish; 3) ish kunini 9,5 soatga tushirilishiga erishdi;
4) hukumat tarkibining 1/3 qismini egalladi.
A) *1, 3* B) *1, 4* C) *2, 4* D) *2, 3*

2. Quyida keltirilgan ma’lumotlar qaysi hukmdor haqida ekanligini toping.
“U hindlarning ziyoratgohlaridan olinadigan soliqni bekor qildi. Davlat idoralaridagi lavozimlarga dini va mazhabidan qat’i nazar, shaxsning salohiyatiga qarab taqsimlanadigan bo‘ldi. Afg‘onlarning Sur sulolasi qo‘shinini butunlay yanchib tashladi.”
A) *Shoh Jahon* B) *Akbarshoh*
C) *Avrangzeb* D) *Humoyun*

3. Xitoyda nechanchi yilda "30-may harakati" bo‘lib o‘tgan?
A) *1925-yilda* B) *1919-yilda* C) *1931-yilda*
D) *1921-yilda*

4. Nechanchi yilda Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligi keng nishonlandi?
A) *2007-yilda* B) *2000-yilda* C) *1998-yilda*
D) *1993-yilda*

5. Daues rejasi qachon qabul qilingan?
A) *1918-yilda* B) *1924-yilda* C) *1929-yilda*
D) *1930-yilda*

6. 1613-yilda Moskvada chaqirilgan Zemstvo sobori...
A) *krepostnoy dehqonlarning bir yer egasidan boshqasiga o‘tishini yiliga bir kun (26-noyabr) bilan cheklab qo‘ydi*
B) *Boris Godunovni Rossiya podshosi etib sayladi*
C) *yangi “Sobor nizomi”ni qabul qildi*
D) *Ivan IV Grozniy xotinining qarindoshi Mixail Fyodorovich Romanovni Rossiya podshosi etib sayladi*

7. Kimning boshqaruvi davrida SSSR Afg‘onistonga o‘z qo‘shinlarini kiritgan?
A) *L.Brejnev* B) *Yu.Andropov* C) *I.Stalin*
D) *M.Gorbachyov*

8. XIX asrning so‘nggi o‘n yilligida milliy zulmning kuchayishi natijasida Avstriya-Vengriyaning qaysi hududdagi aholisi "vengrlashtirildi"?
A) *Galitsiyadagi chex aholisi*
B) *Xorvatiyadagi slovak aholisi*
C) *Zakarpatyedagi ukrain aholisi*
D) *Bukovinadagi sloven aholisi*

9. Toshkent hokimligi qaysi Qo‘qon xoni davrida tashkil topgan?
A) *Olimxon* B) *Erdonabiy* C) *Umarxon*
D) *Norbo‘tabiy*

© Davlat test markazi, 2019

10. Amir Temur taxtga o‘tirgach harbiy yurishlar orqali egallagan (a) va Amir Temurga jangsiz bo‘ysungan (b) hududlarni belgilang.
1) Hirot; 2) Saraxs; 3) Seiston 4) Mozandaron; 5) Qavsiya; 6) Xorazm 7) Sabzavor; 8) Jom.

A) *a-1, 3, 4, 6, b-2, 5, 7, 8*
B) *a-1, 2, 4, 5, b-3, 6, 7, 8*
C) *a-2, 4, 6, 7, b-1, 3, 5, 8,*
D) *a-1, 3, 5, 8, b-2, 4, 6, 7*

11. SSSR hukumati tomonidan "1946-1953-yillarda O‘zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada rivojlantirish rejasi va tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori qachon qabul qilingan?
A) *1944-yil noyabr* B) *1945-yil fevral*
C) *1945-yil dekabr* D) *1946-yil fevral*

12. O‘zbekistonda so‘m-kupon (1) va milliy valyuta – so‘m (2) muomalaga kiritilgan sanalarni aniqlang.
a) 1992-yil 16-oktabr; b) 1993-yil 1-noyabr;
c) 1994-yil 1-iyul; d) 1996-yil 16-iyun
A) *1-b, 2-c* B) *1-b, 2-d* C) *1-d, 2-a*
D) *1-c, 2-b*

13. Sharqiy Frank qirolligi taxtiga Otton I o‘tirgan yilda Somoniylar davlatida kim hukmronlik qilayotgan edi?
A) *Ismoil Somoniy* B) *Nuh II* C) *Nasr II*
D) *Nuh*


14. Fransiya tarixida yuz bergan quyidagi voqealar to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda berilgan javobni aniqlang.
1) mamlakatning birinchi konstitutsiyasi qabul qilindi; 2) "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi" qabul qilindi; 3) Napoleon Bonapart Fransiya Respublikasining konsuli unvoniga ega bo‘ldi; 4) Lyudovik XVI qatl etildi; 5) Jirondachilar hokimiyati ag‘darildi
A) *2, 3, 5, 1, 4* B) *1, 3, 4, 5, 2*
C) *2, 1, 4, 5, 3* D) *1, 4, 5, 2, 3*

15. Quyidagilardan Buxoro bilan (o‘rta asrlarda) bog‘liq to‘g‘ri ma’lumotlar ko‘rsatilgan javobni belgilang.
1) Zandana qishlog‘ida to‘qilgan malla rang bo‘z – "zandanicha" matosi Sharqda mashhur bo‘lgan; 2) Vador qishlog‘ida tayyorlangan mato – "vadoriy" Sharqda mashhur bo‘lgan;
3) yuqori sifatli qog‘oz ishlab chiqarilgan;
4) Farjak madrasasi qurilgan.
A) *2, 3* B) *2, 4* C) *1, 3* D) *1, 4*

16. 1905-yilda quyidagi qaysi davlatda inqilobiy harakat boshlangan?
A) *Eron* B) *Turkiya* C) *Xitoy* D) *Italiya*

17. XX asr boshlarida Fransiya va Buyuk Britaniya yaqinlashuvi yuz berdi. Bu yaqinlashuv 1904-yilda ular o‘rtasida bitim imzolanishi bilan yakunlandi. Bu bitim ularning mustamlakalar masalasi yuzasidan kelishuvlarini o‘zida aks ettirgan, xususan...
1) Buyuk Britaniya Fransiyaning Jazoirdagi manfaatlarini tan oldi; 2) Marokash sultoni o‘z vazifasini bajara olmasligi ehtimoli bo‘lsa, Marokash hududining Gibraltar bo‘g‘oziga bevosita tutash bo‘lgan qismini Ispaniyaga berish belgilab qo‘yildi; 3) Fransiya Buyuk Britaniyaning Misrdagi harakatlariga bundan buyon to‘sqinlik qilmasligini, Misrning Buyuk Britaniya ta’sir doirasida ekanligini tan oldi;
4) Marokash sultoni o‘z vazifasini bajara olmasligi ehtimoli bo‘lsa, Marokash hududining Gibraltar bo‘g‘oziga bevosita tutash bo‘lgan qismini Angliyaga berish belgilab qo‘yildi;
5) Buyuk Britaniya Fransiyaning Marokashdagi manfaatlarini tan oldi.
A) *1, 2, 5* B) *2, 3, 5* C) *1, 3, 5* D) *2, 4, 5*


18. Xaritada yulduzcha bilan ko‘rsatilgan davlat (yarimorol)ga harbiy yurish qilgan hukmdorni toping.



A) *Zahiriddin Muhammad Bobur* B) *Abaxay*
C) *Pyotr I* D) *Oda Nobunaga*

© Davlat test markazi, 2019

19. Rasmda tasvirlangan yunonchada "barcha xudolar ibodatxonasi" degan ma'noni anglatuvchi, shiftlari gumbaz shaklida ustunlarsiz qurilgan ibodatxona quyidagi qaysi hududda bunyod etilgan?



A) *Afinada* B) *Bobilda* C) *Misrda* D) *Rimda*

20. Quyidagilardan "Hayotnoma" va "Dalil al-oshiqin" asari muallifini toping.

A) *Abu Mansur al-Moturudiy*
B) *Bahouddin Naqshband*
C) *Mahmud az-Zamaxshariy*
D) *Abu Nasr Forobiy*

21. Qadimgi Yunoniston tarixiga oid to'g'ri ma'lumotlar berilgan javobni aniqlang.
1) Tog'lardagi Fermopil darasi Yunoniston shimolidan janubiga olib boradigan birdan-bir yo'l bo'lgan; 2) Makedoniya podshosi Filipp II forslarga qarshi yurishini amalga oshira olmasdan vafot etdi; 3) Mamlakatni mudofaa qilish zarurati yuzaga kelgan taqdirda 40 yoshga to'lgan erkaklarning barchasi ko'rikka yetib kelishi shart bo'lgan; 4) Yunonlar yil hisobini Olimpiya o'yinlariga qarab yuritganlar; 5) Yunonistondagi Olimpiya o'yinlari Olimp xudosi Dionis sharafiga bag'ishlab o'tkazilgan; 6) "Yunonlar ozodligi Xeroniya ostonasida halok bo'lganlar bilan birgalikda dafn qilindi", degan edi Demokrit.

A) *1, 2, 4* B) *3, 5, 6* C) *1, 3, 5* D) *2, 4, 6*

22. Quyidagi qaysi hududda shaharlar IX-X asrlardayoq yuksala boshlagan?

A) *Angliyada* B) *Germaniyada*
C) *Niderlandiyada* D) *Italiyada*

23. Qaysi davrda odamlarda chopqir hayvonlarni ovlash imkoniyati vujudga kelgan?

A) *mezolit* B) *o'rta paleolit* C) *ilk paleolit* D) *so'nggi paleolit*

24. Xiva xoni, tarixchi olim Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarining IX bobi nechanchi yillardagi Xivaning ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag'ishlangan?

A) *1603-1664-yillar* B) *1505-1663-yillar*
C) *1512-1663-yillar* D) *1612-1664-yillar*

25. Quyidagilardan bir yilda sodir bo'lgan voqealarni aniqlang.
1) Xiva xoni Avaneshxonning hukmronligi boshlandi; 2) Buxoroda Shayx Abdulla tomonidan Mir Arab madrasasini qurish ishlari boshlandi; 3) Mahmud Sultonning o'g'li Ubaydullaxonning hukmronligi boshlandi; 4) Ko'chkunchixonning o'g'li Abu Saidning hukmronligi boshlandi; 5) Zahiriddin Muhammad Bobur vafot etdi

A) *1, 3, 5* B) *2, 4, 5* C) *2, 3, 4* D) *1, 2, 4*

26. IX asrda arab xalifaligidan Eron, Xuroson, Movarounnahr va Misr mustaqillikka erishgach, abbosiylar qo'lida qaysi hududlar qolgan?

A) *Yaqin Sharq va Kichik Osiyo*
B) *Yaqin Sharq va Arabiston yarimoroli*
C) *Kichik Osiyo va Shimoliy Afrika*
D) *Kichik Osiyo va Arabiston yarimoroli*

27. Podsho Rossiyasi tomonidan Xiva xoni ustidan nazorat qilish maqsadida ta'sis etilgan Kengash (devon) a'zolarining necha nafari podsho hukumati vakillari bo'lgan?

A) *5 nafari* B) *3 nafari* C) *2 nafari* D) *4 nafari*

28. Podsho Rossiyasi qo'shinlari tomonidan sharqiy Turkistonning Ili o'lkasidagi qo'zg'olon bostirilgan yilda qoraqalpoqlarning qaysi volostida mustamlakachilarga qarshi xalq qo'zg'oloni boshlangan?

A) *Biybozor va Nukus volostida*
B) *Chimboy va Biybozor volostida*
C) *Mo'ynoq va Nukus volostida*
D) *Qo'ng'irot va Nukus volostida*

29. Mil.avv. II ming yillik boshlarida Shumer-Akkad davlatining parchalanib ketishiga nima sabab bo'lgan?

A) *dengiz savdo yo'llarining yopilishi*
B) *Ossuriya qo'shinlarining zarbasi*
C) *ko'chmanchi qabilalar zarbasi*
D) *Misr hukmdorlarining bosqini*

© Davlat test markazi, 2019

30. Quyidagi jadvalning qaysi qatorlarida ma'lumotlar mos ravishda to‘g‘ri berilgan?

№	Davlat	Yil	Voqea
1.	Germaniya	955	Lex daryosi bo‘yidagi jangda vengerlar mag‘lub etildi
2.	Rossiya	1906	II Davlat Dumasiga saylov o‘tkazildi
3.	Eron	1906	Majlisga saylov o‘tkazildi
4.	Afg‘oniston	1878	inglizlar Afg‘onistonga qarshi urush harakatlarini boshladi
5.	Turkiya	1876	hukumat mamlakatni bankrot deb e'lon qilishga majbur bo‘ldi
6.	Buyuk Britaniya	1918	Ruminiya bilan yarashish bitimini imzoladi

A) *2, 3, 5, 6*

B) *1, 2, 4, 6*

C) *2, 4, 5, 6*

D) *1, 3, 4, 5*

Test varianti “Test topshiriqlari to‘plami 2019” asosida shakllantirilgan:

1 – 79-bet 47	7 – 94-bet 35	13 – 60-bet 72	19 – 114-bet 20	25 – 39-bet 93
2 – 68-bet 40	8 – 80-bet 54	14 – 73-bet 83	20 – 20-bet 23	26 – 57-bet 40
3 – 98-bet 81	9 – 37-bet 65	15 – 22-bet 41	21 – 15-bet 81	27 – 42-bet 19
4 – 49-bet 12	10 – 26-bet 75	16 – 77-bet 27	22 – 54-bet 3	28 – 42-bet 24
5 – 92-bet 19	11 – 48-bet 19	17 – 87-bet 116	23 – 9-bet 26	29 – 11-bet 47
6 – 68-bet 44	12 – 51-bet 35	18 – 106-bet 31	24 – 34-bet 35	30 – 119-bet 10

© Davlat test markazi, 2019